– urug', jamoa, davlatdan ajratilgan alohida, huquqning mustaqil subyekti sifatidagi inson, shaxs g'oyasining shakllanishi.

– bevosita huquqiy tizimning shakllanishi, qonunlarning kodifikatsiya qilinishi hamda qadimgi va o'rta asrlarda huquqiy institutlarning shakllanishi .

– huquq va qonuning universalligi, ularning istisnosiz barcha odamlarga qo'llanish g'oyasining ishlab chiqilishi.

Hozirgi kunda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bilan fransuz olimi K. Vasak tomonidan yaratilgan inson huquqlari uch avlodining o'zaro bog'liqligi ko'pgina olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Ushbu maqolada aynan o'ziga xos evolyutsion yo'lni bosib o'tgan inson huquqlarining uch avlodi nazariyasi va unga kiritilishi mumkin bo'lgan yangi yondashuvlar muhokama qilinadi. A. Saidov ta'biri bilan aytganda, o'tmishdan "izlar"ni izlash emas, balki Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi g'oyalarini izchil taraqqiyoti va chekinishlari bilan rivojlantirish kerak (Saidov, 2018).

**Metodlar**

Ushbu tadqiqotda inson huquqlari uch avlod nazariyasining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini o'rganishda bir nechta ilmiy metoddan foydalanilgan.

Tarixiy-huquqiy metod tadqiqotning asosiy usuli sifatida qo'llanilgan. Bu metod orqali inson huquqlari g'oyalarining qadimgi davr falsafiy ta'limotlaridan tortib zamonaviy xalqaro huquqiy hujjatlargacha bo'lgan evolyutsiyasi ketma-ket tahlil qilindi. Inson huquqlari avlodlarining vujudga kelish sabablari va sharoitlari ham aynan ushbu metod doirasida o'rganildi.

Qiyosiy-huquqiy metod yordamida birinchi, ikkinchi hamda uchinchi avlod huquqlarining mazmuni, xususiyatlari va huquqiy mustahkamlanish darajalari o'zaro taqqoslandi. Turli xalqaro hujjatlarda, xususan, 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yilgi xalqaro paktlar va keyingi davr konvensiyalarida avlodlar huquqlarining qanday aks ettirilgani qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqildi.

Tadqiqot davomida xalqaro huquqiy hujjatlar hamda yetakchi huquqshunos olimlar: K. Vasak, F. Aston, J. Donneli, N. Varlamova va boshqa olimlarning nazariy qarashlari asosiy manba sifatida tahlil qilindi.

**Natijalar**

So'nggi yarim asrda inson huquqlarini avlodlarga ko'ra tasniflash ancha keng tarqaldi. Bu tasnif XX asrning 70–80-yillarida fransuz olimi, huquqshunos K. Vasak tomonidan taklif etilgan. Asli chexiyalik bo'lgan olim inson huquqlarini uchta avlodga ajratib, ushbu nazariya fransuz inqilobining uchta ideali: erkinlik, tenglik hamda birodarlik bilan bog'liq ekanligini aytgan. Paydo bo'lish davri va asosiy mazmun-mohiyati bo'yicha inson huquqlari haqidagi barcha normalarni "inson huquqlari avlodlari" deb ataluvchi uchta guruhga tasniflab chiqish mumkin.

Birinchi avlod Buyuk fransuz inqilobi e'lon qilgan shaxsning huquqlaridir. U asosan fuqarolik, shaxsiy va siyosiy huquqlardan iborat. Ushbu huquqlarga mansub normalarni o'z-o'zidan bajariladigan qoidalar sirasiga kiritish mumkin. Ular bugungi kunga qadar xalqaro va milliy huquqiy hujjatlarda bevosita qo'llab kelinadi.

Ikkinchi avlod asosan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlardan iborat. Ular XX asr o'rtalarida shakllana boshlagan. Bu huquqlarni joriy etish uchun muayyan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy shart-sharoit zarur bo'ladiki, bunday sharoitlar hamma mamlakatlarda ham mavjud emas (Saidov, 2024).

Uchinchi avlod huquqlarining paydo bo'lishi Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari-

dan keyin tinchlikni saqlash, mustamlakachilik qaramligida bo'lgan xalqlarni ozod qilish, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlik kuchayishi huquqni himoya qilish kabi bugungi kunning dolzarb muammolari bilan bog'liq. Bir mamlakatda qo'llaniladigan texnologiyalar barcha xalqlarning ekologik farovonligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan sharoitdagi muhit" (Varlamova, 2011). Bu avlod boshqa ko'pgina manbalarda "birdamlik huquqlari" deb ham ataladi. Bunga, tinchlik, qurolsizlanish, rivojlanish, musaffo tabiiy muhit huquqi kabilarni misol qilish mumkin. Donnelli, Karel Vasakning avlodlariga mos keluvchi uch guruhning har biri Sovuq urush davrida uchta siyosiy blokdan biri tomonidan qo'llab-quvvatlanganini tan oladi:

– G'arb davlatlari fuqarolik va siyosiy huquqlarga ustuvor ahamiyat bergan;

– Sharq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar masalasini ilgari surgan;

Uchinchi dunyo davlatlari esa hamjihatlik huquqlarining ahamiyatini alohida ta'kidlagan (Donnelly, 1993). Bunda olim siyosiy-ideologik omillar bilan Vasakning nazariyasini tahlil qilib berar ekan, Vasak tomonidan umuminsoniy hamjihatlik g'oyasi bilan bog'langan uchinchi avlod huquqlarini anglash eng noaniq va ziddiyatli masala deb hisoblaydi. Agar ushbu axloqiy-siyosiy istaklar (ularni da'vo yoki talab deb atash unchalik o'rinli emas) inson huquqlari sifatida qaraladigan bo'lsa, qator murakkab savollar kelib chiqishi tabiiy: ularni ajralmas huquqlar sifatida tan olish mumkinmi, subyekti kim hisoblanadi, ularni amalga oshirish hamda himoya qilishning huquqiy mexanizmlari bormi? Ayonki, bunday noaniq kollektiv huquqlarni tabiiy va ajralmas inson huquqlari, hatto ikkinchi avlod huquqlari bilan tenglashtirib bo'lmaydi. An'anaviy tarzda ular insoniyat jamiyati (yoki jamiyatlar)ning huquqlari, hatto "butun insoniyat" (Myullerson, 1991) va kelajak avlodlar huquqlari (Mathiesen, 2014) sifatida talqin qilinadi. Bu esa tegishli da'volarning aniq subyekti va unga qarshi majburiyatga ega bo'lgan shaxslarni belgilash imkonini bermaydi. Shu sababli ularni himoya qilishning aniq huquqiy usullarini ishlab chiqish ham deyarli imkonsiz. Bejiz emas, bunday huquqlar asosan deklarativ xarakterga ega bo'lgan xalqaro-huquqiy hujjatlarda ifoda etiladi va ular muayyan yuridik majburiyatlarni nazarda tutmaydi (Pocar, 2015). Inson huquqlari avlodlar nazariyasi nomi bilan doktrinal ahamiyat kasb etadi, hech qanday huquq va majburiyat yuklamaydi va unga nisbatan hech qanday majburiy chora ko'rmaydi ham. Xuddiki, huquqshunoslikda mavjud bo'lgan "klassifikatsiya" (tasniflash) ya'ni inson huquqlarini tasniflab beruvchi ta'limot sifatida maydonga chiqadi. Rus olimasi N. Varlamovaning (2018) fikricha, avlodlar bo'yicha klassifikatsiya doirasida inson huquqlarining ikki guruhiga xos bo'lgan huquqiy tabiatning o'ziga xos xususiyatlari alohida ta'kidlanadi va ularni ta'minlashning quyidagi usullari talab etiladi.

1. Individual erkinlikning turli ko'rinishlarini ifodalovchi birinchi avlodga mansub tabiiy va ajralmas huquqlardan to'sqinliksiz foydalanishni ta'minlovchi yuridik kafolatlar.

2. Davlatning faol ijtimoiy siyosati, avvalo, qayta taqsimlovchi xususiyatga ega siyosat bo'lib, u aholiga (yoki ayrim ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj guruh va qatlamlarga) muayyan ijtimoiy ne'mat, xizmat, yordam ko'rsatishga qaratilgan ikkinchi avlod huquqlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Ushbu huquqlar guruhlarining har birining ahamiyati va ularning o'zaro nisbati haqidagi munozaralarga kirishmasdan inson huquqlarining barcha ma'lum turlari ushbu guruhlar bilan bog'lanishi va ulardan biriga kiritilishi mumkin. Shu munosabat bilan, inson huquqlarini avlodlar bo'yicha klassifikatsiya qilish universal hisoblanadi.

Olimaning inson huquqlarini "avlodlar" bo'yicha klassifikatsiya qilish haqidagi yondashuvi nazariy jihatdan tizimli va tushunarli

boʻlsa-da, u muayyan ilmiy bahs-munozarali jihatlarga ega. Avvalo, huquqlarni birinchi va ikkinchi avlodga qat'iy ajratish ularning oʻzaro chambarchas bogʻliqligini yetarli darajada hisobga olmaydi. Amalda koʻplab huquqlar aralash tabiatga ega boʻlib, ularni faqat davlat aralashuvi yoki toʻsqinliksiz foydalanish mezoni bilan cheklash murakkab ijtimoiy-huquqiy jarayonlarni soddalashtirib yuboradi. Masalan, shaxsiy erkinlik huquqlarini real ta'minlash koʻpincha davlatning faol institutsional va moliyaviy choralarini talab etadi. Bundan tashqari, avlodlar boʻyicha klassifikatsiyani universal deb baholash nazarimizda nisbiydir. Zamonaviy sharoitda uchinchi va hatto toʻrtinchi avlod huquqlari (kollektiv, ekologik, raqamli huquqlar) paydo boʻlib, ular mazkur ikki guruh doirasiga toʻligʻicha sigʻmaydi. Shu bois Varlamovaning bu yondashuvi inson huquqlari evolyutsiyasining muayyan bosqichini muvaffaqiyatli izohlasa-da, uni mutlaq va universal model sifatida qabul qilish ilmiy jihatdan ehtiyotkorlik talab etadi.

Toʻrtinchi sanoat inqilobi deb ataluvchi jarayon natijasida vujudga kelgan raqamli huquqlar ijtimoiy munosabatlarning koʻplab sohalari xarakterini tubdan oʻzgartirgan holda, goʻyoki aynan shunday maqomga da'vo qilishi mumkin. Biroq ushbu taxminni tasdiqlash yoki rad etish uchun ularning genezisi, talablari va ularni ta'minlash boʻyicha majburiyatlarning xususiyati, shuningdek ularni himoya qilishning mavjud usullarini tahlil qilish zarur. Raqamli huquqlarning tarkibiga quydagilarni kiritish mumkin;

– shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish huquqi;

– internet tarmogʻiga erkin kirish huquqi,

– algoritmik qarorlar ustidan nazorat huquqi;

– raqamli savodxonlik huquqi;

– sun'iy intellekt tomonidan kamsitilmaslik huquqi va boshqalar.

Ushbu huquqlar yuridik tabiatiga koʻra birinchi avlod huquqlari, ya'ni davlatning aralashuvidan himoya talabini oʻz ichiga oladi, shu bilan birga ikkinchi avlod huquqlari kabi davlatning faol ta'minlash majburiyatini ham nazarda tutadi. Aynan shu ikkilamchi tabiat raqamli huquqlarni mavjud tasnif doirasida qaysi avlodga kiritish masalasini munozarali qiladi. Ya'ni yangi avlod huquqi oʻzidan oldingi avlodlar huquqlarining asosiy xususiyatlarini oʻzida mujassam etgan.

Oʻzbekiston Respublikasi ham ushbu jarayondan chetda qolmagan. 2020-yilda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar toʻgʻrisida"gi qonun va 2022-yilda tasdiqlangan "Raqamli Oʻzbekiston – 2030" strategiyasi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli xizmatlardan foydalanish boʻyicha muayyan huquqiy asosni yaratdi. Biroq sun'iy intellekt tizimlarini tartibga solish, algoritmik qarorlar ustidan mustaqil nazorat mexanizmi hamda raqamli tengsizlikni bartaraf etishga qaratilgan majburiy huquqiy normalar hali yetarli darajada ishlab chiqilganicha yoʻq. Shu munosabat bilan quyidagicha takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, Oʻzbekiston qonunchiligida "raqamli huquqlar" tushunchasini huquqiy jihatdan aniq belgilab beruvchi va ularning yuridik kafolatlarini mustahkamlovchi maxsus normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida qabul qilinadigan qarorlar, xususan, mehnat, tibbiyot, ta'lim va moliya sohalarida inson huquqlariga ta'sirini baholovchi mustaqil nazorat mexanizmini joriy etish zarur.

Uchinchidan, raqamli tengsizlikni kamaytirish maqsadida qishloq va shahardagi fuqarolar oʻrtasida internet xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini tenglashtirish davlat majburiyati sifatida qonunan mustahkamlanishi lozim.

Shunday qilib, inson huquqlarining avlodlar boʻyicha tasnifi bu yopiq va tugallangan tizim emas, (ya'ni dogmatik tizim emas) balki jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va texnologik rivojlanishiga muvofiq yangilanib boruvchi


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

dinamik nazariyadir. Raqamli huquqlarning mustaqil huquqiy kategoriya sifatida shakllanishi ushbu nazariyaning davom etishi yoki uning qayta koʻrib chiqilishini taqozo etishi aniq. Har holda, bu masala zamonaviy huquqshunoslikning eng dolzarb ilmiy muammolaridan biriga aylanib bormoqda hamda chuqur qiyosiy-huquqiy tadqiqotlarni talab etadi.

**Muhokama**

Yuqorida keltirilgan nazariy yondashuvlar va ilmiy tahlillar shuni koʻrsatadiki, inson huquqlarini avlodlarga ajratib oʻrganish nazariyasi normativ emas, balki ilmiy-doktrinal xarakterga ega boʻlgan tasniflash vositasi sifatida namoyon boʻladi. Ushbu yondashuv inson huquqlarining tarixiy shakllanish bosqichlarini tizimlashtirish, ularning ijtimoiy mohiyati hamda huquqiy tabiatini chuqurroq anglash imkonini bersa-da, u inson huquqlarining qatʼiy iyerarxiyasini yoki ularning ustuvorlik darajasini belgilab bermaydi. Shu maʼnoda, fransuz olimi Karel Vasak tomonidan ilgari surilgan uch avlod konsepsiyasi huquqiy majburiyatlar yuklovchi mustaqil qoida sifatida emas, balki inson huquqlari evolyutsiyasini tahlil qilishga xizmat qiluvchi metodologik model sifatida baholanishi lozim.

Mazkur tasnifning ilmiy ahamiyati, ayniqsa, inson huquqlarining turli guruhlariga xos boʻlgan huquqiy mexanizmlarni farqlash imkonini berishida namoyon boʻladi. Jumladan, birinchi avlod huquqlari asosan davlatning aralashuvdan tiyilish majburiyatini (negative obligations) talab qilsa, ikkinchi avlod huquqlari davlatdan faol ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yuritishni (positive obligations) taqozo etadi. Ushbu farqlash huquqlarni amalga oshirish va himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tahlil natijalari uchinchi avlod huquqlari atrofidagi ilmiy bahs-munozaralar hanuzgacha dolzarbligini saqlab qolayotganini koʻrsatadi. Tinchlik huquqi, rivojlanish huquqi, sogʻlom atrof-muhit huquqi kabi huquqlarning kollektiv xarakterga ega ekani ularning aniq huquq subyektini belgilash masalasini murakkablashtiradi. Bundan tashqari, ushbu huquqlarni amalga oshirishga masʼul boʻlgan subyektlarning doirasi ham anʼanaviy *"shaxs-davlat"* munosabatlaridan kelib chiqib, xalqaro hamjamiyat, transmilliy va nodavlat tuzilmalarni ham qamrab oladi. Natijada esa uchinchi avlod huquqlarini anʼanaviy maʼnodagi tabiiy va ajralmas inson huquqlari bilan toʻliq tenglashtirish masalasi ilmiy jihatdan bahsli boʻlib qolaveradi. Amerikalik faylasuf Kay Mathiesen raqamli inson huquqlari haqidagi munozaralar nafaqat sof huquqiy, balki inson huquqlariga xos boʻlgan axloqiy (moral) mazmun doirasida ham muhim ahamiyatga ega ekanini taʼkidlaydi. U raqamli huquqlarni axloqiy ideallar sifatida, inson taraqqiyotini koʻrsatuvchi tamoyillar sifatida asoslab beradi. Shu bilan birga, u raqamli huquqlar va tan olingan inson huquqlari oʻrtasidagi munosabat muammosini ularni asosan fundamental emas, balki hosilaviy (kelib chiquvchi) huquqlar sifatida talqin qilish orqali hal etish mumkinligini qayd etadi (Mathiesen, 2014).

Bu holatda raqamli huquqlar gʻoyasi inson huquqlari bilan raqamli texnologiyalar oʻrtasidagi murakkab va baʼzan ziddiyatli munosabatlarni konseptual jihatdan tushuntirish usuli sifatida namoyon boʻladi. Biroq raqamli huquqlar va fundamental inson huquqlari oʻrtasidagi nisbat masalasi huquqshunoslikda hanuzgacha yagona yechim topgani yoʻq va bu masala yuzasidan ilmiy bahslar haligacha davom etmoqda. Ayrim olimlar raqamli huquqlarni inson huquqlarining yangi bosqichi sifatida talqin qilsa, boshqalar ularni faqat mavjud fundamental huquqlarning raqamli muhitdagi ifodasi deb hisoblaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, raqamli huquqlar mustaqil huquq sohasi sifatida eʼtirof etilishi kerakmi yoki ular inson huquqlarining zamonaviy koʻrinishi sifatida baholanishi lozimmi, degan savol ochiq qolmoqda. Ay-

niqsa, axborot jamiyatining jadal rivojlanishi sharoitida ayrim raqamli huquqlar kelajakda fundamental huquqlar tizimi bilan yanada chambarchas bogʻlanishi mumkinligini inkor etib boʻlmaydi. Bu esa inson huquqlari tizimi ham raqamli transformatsiya taʼsirida oʻzgarib borayotganini koʻrsatadi.

"Raqamli huquq" atamasi huquqshunoslikda nisbatan yangi boʻlib, u jamiyatning raqamli transformatsiyasi natijasida vujudga kelgan yangi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuyini anglatadi. Shu bilan birga, ushbu tushuncha atrofida ham yakdil qarash mavjud emas: baʼzi tadqiqotchilar uni alohida huquq sohasi sifatida shakllanayotgan konsept deb hisoblaydi, boshqalar esa bunday yondashuvni nisbatan shartli deb baholaydi. Zamonaviy axborot jamiyatida raqamli texnologiyalarning tez surʼatlarda rivojlanishi natijasida raqamli huquqlar muammosi global ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro miqyosda ishlab chiqilgan nazariy asoslarga koʻra raqamli huquqlar toʻrt xil diskurs orqali namoyon boʻladi: liberal-demokratik, texno-kommersial, huquqiy-rasmiy va tanqidiy-ijtimoiy (Kuikka et al., 2020). Ushbu diskurslar raqamli huquqlar tushunchasining koʻp qirrali tabiatini koʻrsatadi.

Niderlandiyalik olim Kolmar oʻz tadqiqotida zamonaviy raqamli era uchun yangi huquqlarni tasavvur qilish zarurligini taʼkidlaydi (Colmar, 2021). U mavjud huquqlar tizimiga moslashish oʻrniga yangi raqamli huquqlarni ishlab chiqish muhimligini alohida taʼkidlaydi. Shuningdek, raqamli makon mavjud huquqlarning shunchaki yangi shakli emas, balki mutlaqo yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi ustqurilma sifatida baholanib, anʼanaviy huquqiy mexanizmlarning cheklanganligi namoyon etiladi. Shu bilan birga, bu pozitsiya ilmiy munozarali jihatga ham ega. Yangi raqamli huquqlarni noldan shakllantirish huquqiy tizimning uzviyligi hamda vorisligi tamoyillariga putur yetkazishi ehtimoldan xoli emas. Biroq mavjud inson huquqlarini raqamli muhitga moslashtirish orqali ham samarali himoya mexanizmlarini yaratish imkoniyati mavjud. Demak, Kolmar tomonidan ilgari surilgan mazkur konsepsiya innovatsion va dolzarb boʻlishiga qaramay, uni evolyutsion moslashuv yondashuvi bilan uygʻun holda koʻrib chiqish nazariy hamda amaliy jihatdan yanada asosli yechimlarni taʼminlaydi.

Pangratsio va Sefton-Grin taʼrifiga koʻra, raqamli huquqlar bu fuqarolarga raqamli kontentga kirish, uni ishlatish, yaratish hamda nashr etish imkonini beruvchi huquqlardir (Pangrazio & Sefton-Green, 2018). Olimlar tomonidan berilgan ushbu taʼrif raqamli huquqlarning funksional jihatini aniq ochib beradi, yaʼni foydalanuvchining *"kirish-foydalanish-yaratish-nashr etish"* zanjiridagi faol rolini markazga qoʻyadi. Bu yondashuv raqamli makonda shaxsni passiv isteʼmolchidan faol ishtirokchiga aylantirish gʻoyasini kuchli aks ettirib berdi. Biroq taʼrif maʼlum darajada tor doirada qoladi. Unda raqamli huquqlarning himoya (shaxsiy maʼlumotlar daxlsizligi, algoritmik adolat, raqamli xavfsizlik) va tenglik (raqamli tafovutni bartaraf etish masalalari) kabi normativ jihatlari yetarlicha yoritilmaganini koʻrish mumkin. Shu sababdan taʼrif raqamli huquqlarning amaliy foydalanuvchi oʻlchovini muvaffaqiyatli ifodalasa-da, ularni toʻliq huquqiy institut sifatida tavsiflash uchun kengroq va kompleks yondashuv bilan boyitish maqsadga muvofiq.

Bugungi ilmiy yondashuvlarda esa jamiyatning raqamli transformatsiyasi natijasida inson huquqlarining toʻrtinchi avlodi shakllanayotgani eʼtirof etilmoqda. Mazkur avlod doirasida aynan raqamli huquqlar shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish huquqi, internetga kirish huquqi, raqamli identifikatsiya xavfsizligi, sunʼiy intellekt va algoritmik qarorlar shaffofligiga boʻlgan huquqlar alohida oʻrin egallaydi.

Raqamli huquqlarni inson huquqlarining yangi, mustaqil avlodi sifatida oʻrganish zamonaviy huquqshunoslikning dolzarb yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda raqamli huquqlar tushunchasi "aqlli shaharlar" konsepsiyasi doirasida shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib chiqilmoqda (Mora et al., 2021). Sh. Ro'zinazarovning ta'kidlashicha, raqamli huquq mohiyatiga ko'ra keng ma'noni anglatib, nafaqat texnologik, balki u orqali sodir bo'ladigan raqamli huquqiy munosabatlar majmuyini ham qamrab oladi (Ro'zinazarov, 2024).

Umuman olganda, inson huquqlari avlodlari nazariyasini mutlaq va o'zgarmas model sifatida emas, balki rivojlanib borayotgan ijtimoiy-huquqiy jarayonlarni tushuntirishga xizmat qiluvchi ochiq konsepsiya sifatida baholash maqsadga muvofiq. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida inson huquqlarining mazmuni, amalga oshirilish shakllari qayta talqin qilinayotgan bir paytda ushbu masala kelgusida fundamental ilmiy tadqiqotlar uchun muhim va istiqbolli yo'nalish bo'lib qolmoqda. Xo'sh, raqamli huquqlarni inson huquqlarining 4-avlodi sifatida baholashimiz mumkinmi? Bir tomondan ayrim olimlar Karel Vasak tomonidan ilgari surilgan avlodlar nazariyasi tarixiy sharoitlar mahsuli ekanini ta'kidlab, uni yangi huquqlar bilan kengaytirishga ehtiyotkorlik bilan yondashadilar. Boshqa tomondan esa raqamli texnologiyalar ta'sirida vujudga kelayotgan yangi ijtimoiy munosabatlar inson huquqlarining mazmunini sezilarli darajada o'zgartirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, raqamli huquqlarni inson huquqlarining to'rtinchi avlodi sifatida talqin qilish ma'lum darajada asoslidir. Chunki huquq doimiy harakatdagi ijtimoiy hodisa bo'lib, u an'anaviy shakllardan zamonaviy bosqichga o'tar ekan, yangi konseptual yondashuvlar shakllanishiga zamin yaratadi. Natijada raqamli makonda shakllanayotgan huquqiy munosabatlar inson huquqlari evolyutsiyasining navbatdagi bosqichi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

**Xulosa**

XXI asrda dunyo o'z taraqqiyotining sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichiga o'tdi. Bu bosqich inson mavjudligining barcha jihatlarida chuqur o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur jarayonlar globallashuv, postindustrial jamiyatning shakllanishi, axborot jamiyatining vujudga kelishi hamda taraqqiyotning noosfera yo'liga o'tishi kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, jahon sivilizatsiyasining keyingi rivojlanishiga oid qarama-qarshi baholar bildirilmoqda hamda turli rivojlanish vektorlari taklif etilmoqda (Melnik, 2010). Mana shunday vektorlardan biri aynan raqamli transformatsiya jarayonida o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan mavzu – inson huquqlari avlodlar nazariyasiga to'rtinchi avlodning kirib kelishi bilan bog'liq. K. Vasak tomonidan ilgari surilgan ushbu doktrinal nazariya vaqt o'tishi bilan rivojlanib, unga to'rtinchi, ya'ni raqamli avlodni kiritish zarurati mavjudmi, degan tabiiy savolni yuzaga keltiradi. Mazkur nazariyaga nisbatan turli ilmiy yondashuvlar shakllangan. Jumladan, ayrim olimlar K. Vasakning avlodlar nazariyasiga to'rtinchi avlod sifatida raqamli huquqlarni kiritishga qarshi fikr bildiradilar. Shu bilan birga, olimning avlodlar nazariyasida har bir bosqich muayyan tarixiy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanganini alohida ta'kidlash lozim. Xususan, uchinchi avlod huquqlari ham o'z vaqtida global ekologik muammolar, tinchlik hamda umumijtimoiy manfaatlar zarurati natijasida yuzaga kelgan edi. Demak, har bir yangi avlod huquqlari jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichi bilan uzviy bog'liq. Shunday ekan, raqamli huquqlarni alohida avlod sifatida tan olmaslik zamonaviy ijtimoiy munosabatlarning tub o'zgarishini inkor etish bilan barobardir.

2017-yildan raqamli makon bilan bog'liq 100 dan ortiq xalqaro hujjatlarning qabul qilinishi inson faoliyatining sezilarli qismi virtual muhitga ko'chganini yaqqol ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar insonlar o'rtasida mutlaqo yangi turdagi munosabatlarni shakllantirmoqda: ma'lumotlar muhofazasi, sun'iy intellekt bilan o'zaro aloqalar, raqamli

identifikatsiya va kiberxavfsizlik masalalari endilikda fundamental huquqiy qadriyatlarga aylanmoqda. Shu bois raqamli huquqlarni inson huquqlarining yangi bosqichi sifatida tan olish nafaqat ilmiy jihatdan asosli, balki tarixiy zarurat hamdir. Zamonaviy ilmiy paradigma, texnologik taraqqiyot hamda xalqaro huquqiy amaliyotning uyg'unlashuvi inson huquqlari avlodlari nazariyasining to'rtinchi avlodi shakllanayotganini ko'rsatmoqda. Бу jarayonni inkor etish emas, balki ilmiy jihatdan asoslash bugungi huquqshunoslik oldidagi dolzarb vazifadir.

Ushbu ilmiy tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, inson huquqlari va raqamli huquqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni nazariy jihatdan asoslash bilan bir qatorda uni amaliyotga joriy etish bo'yicha quyidagi aniq takliflarni ilgari surish mumkin:

– ilmiy-adabiyotlarda raqamli huquqlar tushunchasining yagona ta'rifini ishlab chiqish;

– inson huquqlarining har bir asosiy turi (so'z erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, axborot olish huquqi va boshqalar)ni raqamli muhit bilan bog'liq holda tizimlashtirish;

– davlat organlari va xususiy sektor faoliyatida inson huquqlariga moslik ekspertizasi (human rights impact assessment) tizimini yo'lga qo'yish;

– raqamli muhitda inson huquqlari buzilishining oldini olishga qaratilgan profilaktik choralarni ishlab chiqish;

– yurtimizdagi yuridik oliygohlarda "raqamli inson huquqlariga kirish" nomli fanni joriy etish;

– raqamli huquqlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va talabalar loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilmiy loyiha, grandlarini tashkil etish.

Asosiysi esa ilmiy va amaliy faoliyat integratsiyasini ta'minlash maqsadida inson huquqlari va raqamli huquqlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan ilmiy-amaliy markazlar yoki tadqiqot dasturlarini yo'lga qo'yish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq insituti huzurida Raqamli huquqni tadqiq etish bo'limi tashkil etilsa, nazariy yondashuvlarning amaliyotga tatbiq etilishiga xizmat qilgan bo'lar edi.

Yuqoridagi takliflardan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli huquqlar masalasi inson huquqlari tizimining inqirozi emas, balki uning rivojlanishidagi navbatdagi bosqich hisoblanadi. Shu bois inson huquqlari avlodlar nazariyasini qayta ko'rib chiqish jarayonida uni mutlaqlashtirishdan qochib, zamonaviy ijtimoiy va texnologik o'zgarishlar nuqtayi nazaridan qayta talqin qilish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv inson huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda huquqiy davlat va qonun ustuvorligi g'oyalarini yangi sharoitda ta'minlashga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Colmar, R. (2021). New digital rights: Imagining additional fundamental rights for the digital era. *Computer Law & Security Review*, *43*, Article 105596.

2. Donnelly, J. (1993). *International human rights*. Westview Press.

3. Kuikka, J., Lehtiniemi, T., & Ruckenstein, M. (2020). Four discourses of digital rights: Promises and problems of rights-based politics. *Journal of Information Policy*, *10*, 304–334. https://doi.org/10.5325/jinfopoli.10.2020.0304

4. Mathiesen, K. (2014). Human rights for the digital age. *Journal of Mass Media Ethics*, *29*(1), 2–18. https://doi.org/10.1080/08900523.2014.863124

5. Mbaye, K. (1992). Introduction: Human rights and rights of peoples. In M. Bedjaoui (Ed.), *International law: Achievements and prospects* (p. 1043). UNESCO.

6. Melnik, V. V. (2010). Globalizatsiya v kulturnoy sfere: Teoretiko-metodologicheskiy analiz [Globalization in the cultural sphere: Theoretical and methodological analysis]. *Humanitarian Bulletin of the Zaporizh State Engineering Academy*, (43).
7. Mora, L., Bolici, R., & Deakin, M. (2021). The right to have digital rights in smart cities. *Sustainability*, *13*(20), Article 11438. https://doi.org/10.3390/su132011438
8. Myullerson, R. A. (1991). *Prava cheloveka: Ideya, normy, realnost [Human rights: Idea, norms, reality].* Yuridicheskaya Literatura.
9. Pangrazio, L., & Sefton-Green, J. (2018). *Digital rights, digital citizenship and digital literacy*. Global Kids Online.
10. Pocar, F. (2015). Some thoughts on the Universal Declaration of Human Rights and generations of human rights. *International Human Rights Review*, *10*, 50–52.
11. Roʻzinazarov, Sh. (2024). *Al-Xorazmiy algoritmik ta'limoti raqamli huquq shakllanishining gnoseologik asosi [Al-Khwarizmi's algorithmic teaching as the gnoseological basis for the formation of digital law].* TSUL Publ.
12. Saidov, A. Kh. (2018). *Oʻzbekiston va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi [Uzbekistan and the Universal Declaration of Human Rights].* Adolat.
13. Saidov, A. Kh. (2024). *Oʻn beshinchi ma'ruza: Inson huquqlari boʻyicha xalqaro huquq [Fifteenth lecture: International human rights law]* (pp. 6-7). University of World Economy and Diplomacy.
14. Szabo, I. (1982). Historical foundations of human rights. In K. Vasak (Ed.), *The international dimensions of human rights* (pp. 11–40). UNESCO.
15. Varlamova, N. B. (2011). Tretye pokolenie prav cheloveka? [The third generation of human rights?]. *Russian Law Journal*, (2), 9–18.
16. Varlamova, N. B. (2019). Tsifrovyye prava – pokolenie prav cheloveka? [Digital rights – a new generation of human rights?]. *Proceedings of the Institute of State and Law of the Russian Academy of Sciences*, *14*(4).

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2026-yil 1-son**

VOLUME 10 / ISSUE 1 / 2026

DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1.